

CURCULIONIDAE OILASIGA MANSUB SITONA (MACULARIS) CRINITUS HERBST, 1795 TURINING MORFOLOGIYASI VA BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

M.A.Axmadjonova

Fargʻona jamoat salomatligi tibbiyot institute, oʻqituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada *Sitona (macularis) crinitus* Herbst, 1795 ning morfologik tuzilishi, jinsiy dimorfizmi, oziqlanish odatlari, koʻpayish biologiyasi va populyatsiya dinamikasi oʻrganilganligi haqida soʻz boradi. Maqolada yana *Sitona humeralis* Steph ning ekologik moslashuvchanligi, oziqlanish xususiyati va avlod qoldirish strategiyalari tahlil qilinib, uning tabiiy ekotizimdagi roli ilmiy asosda yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: *Sitona (macularis) crinitus* Herbst, 1795, fitofag, jinsiy dimorfizm, tuxum qoʻyish, ekologik moslashuv, rivojlanish tsikli, populyatsiya dinamikasi.

Kirish. *Sitona (macularis) crinitus* Herbst, 1795 *Sitona* urugʻiga mansub boʻlib, bu turni Jacob Christian Schaeffer 1831 yilda tasvirlagan.

Tarqalishi: Slovkiya ([49.1N, 19.2E](#)), Rossiya ([44.2N, 40.6E](#)), Avstraliya ([48.3N, 16.4E](#)), Germaniya ([49.7N, 8.6E](#)), Italiya ([46.5N, 11.3E](#)), Buyuk Britaniya ([50.8N, 0.3E](#)).

Adabiyot tahlili va metodologiya.

Maʼlumki, turli agrobiotsenozlarda muhim dominant turlarning zarar keltirish xususiyatlari, ularning iqtisodiy oqibatlarini uzoq yillardan olimlarni tashvishga solib keladi. Agrotsenozlardagi hasharotlarning xilma-xilligi, tarqalishi, ekologiyasi va ularga qarshi kurash usullari boʻyicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning koʻplab ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan olib borilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlari, Markaziy Osiyo, jumladan Oʻzbekiston hududida oʻtkazilgan ekspeditsiyalar va izlanish natijalarining eʼlon qilinishi bir asrdan oshdi. Shundan kelib chiqib, ilmiy natijalarni davrlar kesimida qiyosiy tahlil etish muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

N.V. Plavilshchikov – tarixiy jihatdan Issiqkoʻl atrofi va Tyan-Shan togʻlarida uzunburun qoʻngʻizlar faunasi boʻyicha dastlabki maʼlumotlarni bergan (1930–1950 yillar).

Nedoshivina S.V. – Turkmanistonning janubi-gʻarbiy hududlarida uzunburun qoʻngʻizlar populyatsiyasi va oʻsimliklar bilan bogʻliqligi haqida ilmiy maʼlumotlar bergan (Chikatunov V.I., Nedoshivina S.V. (2006).

Legalov A.A. (2010-yillar) – Qirgʻizistonning togʻli hududlarida uchraydigan Curculionidae turlari roʻyxatini aniqlash va ularning sistematikasini berish bilan shugʻullangan (Legalov A.A., 2010)

Legalov A.A. – Tojikistonning togʻli ekosistemalari (Pamir va Alay tizmalari)da joylashgan Curculionidae turlarini tasniflab bergan (Legalov A.A., 2010).

A.Xolliyev Toshkent viloyati va Qashqadaryo viloyatlarida dukkakli don ekinlar zararkunandalariga qarshi kurash bo'yicha tadqiqotlar olib borgan bo'lib, tadqiqotlar davomida 34 turga mansub zararkunandalarni aniqlagan. Shulardan 23 turi no'xatda uchratilgan (Xolliyev A va boshq., 2014). Shuningdek, asosiy zararkunandalar qatorida donxo'rlar (Bruchidae), tugunak uzunburunlar (Curculionidae)ni keltiradi, ularning biologik xususiyatlari hamda no'xat o'simligida g'o'za tunlamining zarar yetkazish darajasi bo'yicha izlanishlar olib borgan (Xolliyev A.T., 2018).

Curculionidae oilasiga mansub *Sitona* Germar 1817 urug'ining 100 dan turlari mavjud bo'lib, bir qancha turi O'zbekiston sharoitida dukkakli ekinlarning asosiy zararkurandasi hisoblanadi. Avlod vakillari Yevrosiyoga xos turlar sanaladi. Rossiyaning Katta hududlari, Afrikaning shimoliy qismlari, Shimoliy Amerika va Avstraliyada qisman tarqalgan. Tadqiqotlar davomida ushbu urug'ga mansub 9 ta tur qayd etildi.

Sitona (macularis) crinitus Herbst, 1795 Farg'ona viloyati, Beshariq tumani ([40°50'01"N 72°02'80"E](#), [40°26'11"N 70°34'33"E](#) 23.04.2024, 25.04.2024), Buvayda ([40°39'55"N 71°07'13"E](#), [40°39'54"N 71°05'35"E](#); 01.05.2024, 02.05.2024), Farg'ona viloyati, Toshloq tumani Bo'ston ([40°41'03"N 71°51'45"E](#); 04.05.2024), Farg'ona viloyati Dang'ara tumani ([40°56'76"N 70°86'64"E](#), 25.04.2025), Farg'ona viloyati, Quva tumani ([40°50'01"N 72°02'80"E](#), 05.05.2025). 4.1.5-rasm.

Morfologiyasi. Uzunligi 3-5 mm. Shakli ovalsimon. Rangi och jigarrangdan to'q jigarrangacha. Tuklari qisqa, tik va ba'zi joylarida oq rangda. Ko'zlari yumaloq, oyoqlari ingichka va och jigarrang.



Rasm muallifi: Axmadjonova Muxlisaxon,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumani
([40°25'26"N 70°34'57"E](#))

23.04.2024

1-rasm. *Sitona (macularis) crinitus* Herbst, 1795 Original

Rivojlanish biologiyasi.

Bu tur beda va boshqa dukkakli ekinlar agrobiotsenozlarida, ba'zan ular atrofidagi yovvoyi o'simliklarda uchraydi. Turning tarqalish arealiga bog'liq ravishda tuxum qo'yish davri aprel-may oylariga to'g'ri keladi.

Urg'ochilari Janubiy Farg'ona sharoitida 70 tadan 900 taga yaqin tuxum qo'yadi. Lichinkasining rivojlanish davri $+12^{\circ}\text{C}$ da 27 kunda, $+28^{\circ}\text{C}$ da esa 7 kun davom etadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tur uchun optimal harorat chegarasi $+21-25^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi. $+8^{\circ}\text{C}$ dan past va $+32^{\circ}\text{C}$ dan yuqori haroratda tuxumlar rivojlanishdan to'xtaydi. Lichinkalar 3-5 hafta mobaynida rivojlanadi va g'umbakka aylanadi. G'umbak davri 8-11 kunni tashkil etadi.

Janubiy Farg'ona hududi sharoitida mart oyining 20-sanasida qo'ng'izlar qishlovdan chiqadi. Haroratning $+8-10^{\circ}\text{C}$ ga ko'tarilishi bilan beda va yovvoyi dukkakli ekinlarda oziqlanishni boshlaydi. Qo'ng'izlarni iyun oyigacha uchratish mumkin. Janubiy Farg'ona Vodiy sharoitida qo'ng'iz g'umbaklari 15-may uchinchi sanasidan iyun oyigacha qayd etildi.

Uzunburunlar rivojlanishini bir qator omillar cheklashi mumkin. Qishlov sharoitlarining noqulayligi va bahorning sovuq harorati va yog'ingarchilikning ko'p bo'lishi urg'ochilarning nasldorligi pasaytiradi.

Bioekologiyasi: oligofag. Dukkakdoshlar nihollik davrida, o'simlikning yashil qismi bilan oziqlanadi. Asosan **dukkakli o'simliklar bilan oziqlanadi:** beda (*Medicago sativa*), beda yovvoyi turlari, yasmiq, mosh, no'xat, bug'doy-beda aralash ekinlari.

Yiliga 1–2 avlod beradi (bivoltin) tur bo'lib, urg'ochilari Janubiy Farg'ona sharoitida 70 tadan 900 taga yaqin tuxum qo'yadi. Lichinkasining rivojlanish davri $+12^{\circ}\text{C}$ da 27 kunda, $+28^{\circ}\text{C}$ da esa 7 kun davom etadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tur uchun optimal harorat chegarasi $+21-25^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi. $+8^{\circ}\text{C}$ dan past va $+32^{\circ}\text{C}$ dan yuqori haroratda tuxumlar rivojlanishdan to'xtaydi. Lichinkalar 3-5 hafta mobaynida rivojlanadi va g'umbakka aylanadi. G'umbak davri 8-11 kunni tashkil etadi.

Janubiy Farg'ona hududi sharoitida mart oyining 20-sanasida qo'ng'izlar qishlovdan chiqadi. Haroratning $+8-10^{\circ}\text{C}$ ga ko'tarilishi bilan beda va yovvoyi dukkakli ekinlarda oziqlanishni boshlaydi. Qo'ng'izlarni iyun oyigacha uchratish mumkin. Janubiy Farg'ona Vodiy sharoitida qo'ng'iz g'umbaklari 15-may uchinchi sanasidan iyun oyigacha qayd etildi.

Uzunburunlar rivojlanishini bir qator omillar cheklashi mumkin. Qishlov sharoitlarining noqulayligi va bahorning sovuq harorati va yog'ingarchilikning ko'p bo'lishi urg'ochilarning nasldorligi pasaytiradi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, *Sitona (macularis) crinitus* Herbst, 1795 oligofag bo'lib, dukkakli o'simliklar bilan oziqlanadi. Qishlov bosqichi: kattalar (imago) bosqichida tuproqda o'tadi. Bir yilda 1 avlod beradi. Optimal harorat: $+20^{\circ}\text{C} - +27^{\circ}\text{C}$. Faollik boshlanishi: bahorda, havo harorati $+10^{\circ}\text{C}$ dan oshganda. Qurg'oqchilik va issiqlikka nisbatan ancha chidamli.

1. Холлиев А.Т. Дуккакли дон экинлари (нўхат, мош, ловия) зараркунандаларига қарши кураш усуллари ишлаб чиқиш: к/х. фан. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. –Тошкент, 2018. – 42 б.
2. Холлиев А.Т., Ахмеджанова К. А, Махмудов М. Дуккакли дон экинларининг илдиз зараркунандалари. //Агрокимё химоя ва ўсимликлар карантини журнали. – Тошкент, 2021. -№4. – Б.17-19.
3. Ю. В. Белявский, с. В. Филоненко распространение свекловичного (амарантового) долгоносика-стеблееда (*Lixus subtilis*)- Белорусской Государственной Сельскохозяйственной Академии 2018 №3 <https://elc.baa.by/vestnik/vestnik2018-3/vestnik2018-3>
4. Alonso-Zarazaga MA, Lyal CHC (2009) A catalogue of family and genus group names in Scolytinae and Platypodinae with nomenclatural remarks (Coleoptera: Curculionidae). Zootaxa 2258
5. Alonso-Zarazaga, M.A.; Barrios, H.; Borovec, R.; Bouchard, P.; Caldara, R.; Colonnelli, E.; Gultekin, L.; Hlavač, P.; Korotyaev, B.; Lyal, C.H.C.; et al. Cooperative Catalogue of Palaerctic Coleoptera Curculionoidea. *Monogr. Electron. SEA* 2017, 8, 729.
6. Averenskiy, A.I. // The Catalogue of Beetles of Yakutia // Yakutsk Scientific Center SD RAS Publ.: Yakutsk, Russia, 1999; p. 96.